



**TOSHKENT VILOYATINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2019 yil yanvar-sentyabr)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 12863,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7% ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1208,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 3,7%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 10368,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 6,5%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1286,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,1 %) tashkil etdi.


**Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**


2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon shahri, Bekobod, Toshkent va Parkent tumanlarida qayd etildi.

Jami viloyat Chakana savdo aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi, (%)



- Nurafshon sh. ■ Olmaliq sh. ■ Angren sh. ■ Bekobod sh. ■ Ohangaron sh.
- Chirchiq sh. ■ Yangiyo'l sh. ■ Oqqo'rg'on ■ Ohangaron ■ Bekobod ■ Bo'stonliq
- Bo'ka ■ Quyichirchiq ■ Zangiota ■ Yuqorichirchiq ■ Qibray ■ Parkent ■ Piskent
- O'rtachirchiq ■ Chinoz ■ Yangiyo'l ■ Toshkent




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 %ga o'sdi va 1208,4mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,4% ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 10368,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar- sentyabr oylariga nisbatan 6,5 %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 80,6 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


**2018 yil
yanvar- sentyabr**



**2019 yil
yanvar- sentyabr**



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Oqqo'rg'on tumani (94,0 %), Yangiyo'l tumani (90,5 %), Nurafshon shahri (93.5 %), Yangiyo'l shahri (88,6 %), Bostonliq tumani (87.7%), Parkent tumani (88,3%), va Pskent (83,0 %), tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 9,4% ni tashkil etib, eng katta ulush Chinoz tumani (30,3 %), Bekobod shahri (22,1 %), Ohangaron shahri (18,4 %), Toshkent tumani (17,3 %), O'rtachirchiq tumani (13,4 %), Chirchiq shahri (11,8 %), Yuqorichirchiq tumani (10,2 %), Qibray tumani (9,9 %) tumanlarida kuzatilgan.


**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	1208425,3	93,7	10368496,0	106,5
Nurafshon sh.	830,7	3,0	470894,1	160,5
Olmaliq sh.	151 303,0	124,5	902995,2	101,2
Angren sh.	40 486,4	117,1	502911,0	99,8
Bekobod sh.	152 029,1	125,8	489020,5	99,7
Ohangaron sh.	44 425,0	173,7	156818,0	101,0
Chirchiq sh.	81 142,4	98,4	518811,6	105,8
Yangiyo`l sh.	21 745,4	89,1	572893,2	104,1
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo`rg`on	7 303,2	81,2	466334,3	101,9
Ohangaron	6 643,7	171,2	166949,2	102,6
Bekobod	29 490,0	539,1	245689,5	99,5
Bo`stonliq	33 077,3	64,5	506727,8	106,2
Bo`ka	15 274,0	89,6	328218,4	101,5
Quyichirchiq	3 364,2	80,8	187706,1	103,8
Zangiota	73 233,0	88,3	1349235,3	104,0
Yuqorichirchiq	54 835,7	47,6	452794,6	124,2
Qibray	98 785,3	71,4	761937,9	112,2
Parkent	18 800,3	104,4	431491,1	105,5
Piskent	10 563,0	91,2	227286,2	101,7
O`rtachirchiq	33 312,7	82,3	195319,3	107,3
Chinoz	179 378,0	92,9	371245,9	110,4
Yangiyo`l	23 896,1	101,6	528755,4	102,1
Toshkent	128 506,7	92,7	534461,8	107,3

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 4414,2 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,3%ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Yangiyo'l shahri (10791,1 ming.so'm), Nurafshon shahri (10410,2 %), Zangiota tumani (8256,3 ming. so'm) va Olmaliq shahri (8894,7 ming.so'm) hissasiga to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	4414,2	103,3
Nurafshon sh.	10410,2	141,8
Olmaliq sh.	8894,7	102,2
Angren sh.	3486,6	99,7
Bekobod sh.	7252,2	103,1
Ohangaron sh.	6480,7	107,9
Chirchiq sh.	4392,7	103,9
Yangiyo'l sh.	10791,1	102,4
tumanlar:		
Oqqo'rg'on	4771,5	100,0
Ohangaron	2043,9	102,3
Bekobod	2014,0	106,3
Bo'stonliq	3442,9	101,2
Bo'ka	3207,9	99,1
Quyichirchiq	2151,0	101,3
Zangiota	8256,3	102,0
Yuqorichirchiq	4021,5	104,3
Qibray	5009,4	103,5
Parkent	3194,5	103,3
Piskent	2745,3	99,7
O'rtachirchiq	1680,8	101,1
Chinoz	4473,5	102,2
Yangiyo'l	2812,7	100,5
Toshkent	4170,5	102,5




Jumladan, 2019 yilning yanvar- sentyabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 %ni tashkil etib, 329,2 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 8,8 % oshgan. Bunda jami savdo aylanmasining 77,5 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**TOSHKENT VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2019 yil yanvar- sentyabr)

Yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 5037,0 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 0,6 %ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar- sentyabr oylari yakunlariga ko`ra, 2672,6 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 53,0%ni tashkil qilmoqda.

**Yirik va kichik korxonalarining
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub`ektlari aylanmasining ulushi 45,2 % ni tashkil etdi, kichik korxonalarining ulushi katta bo`lgan Ohangaron shahar (100,0%), Angren (99,9%) shahrida va Yangiyo`l (99,9%) tumanida kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	5037,0	92,6	2672,7	84,2	2364,3	104,3
Nurafshon sh.	26,1	102,0	0,1	68,3	26,0	102,1
Olmaliq sh.	109,4	69,9	22,9	31,7	86,5	102,6
Angren sh.	39,2	102,8	0,1	24,2	39,1	103,4
Bekobod sh.	54,9	101,4	0,2	15,5	54,6	103,6
Ohangaron sh.	34,2	102,6	0		34,2	102,6
Chirchiq sh.	108,7	103,5	6,2	87,7	102,5	104,7
Yangiyo`l sh.	146,1	105,7	0,4	394,2	145,7	105,5
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo`rg`on	4,7	98,1	5,7	5,7	4,7	101,5
Ohangaron	33,5	102,3	64,4	64,4	33,3	102,8
Bekobod	61,3	270,6	799,7	799,7	16,9	99,0
Bo`stonliq	56,4	82,5	5,0	5,0	55,7	102,1
Bo`ka	25,6	101,8	54,5	54,5	25,5	102,0
Quyichirchiq	20,1	101,0	51,3	51,3	20,0	101,7
Zangiota	568,5	94,6	32,2	32,2	545,8	102,9
Yuqorichirchiq	98,6	113,7	867,3	867,3	87,4	102,3
Qibray	1178,8	91,0	88,3	88,3	229,6	104,0
Parkent	83,4	105,4	651,5	651,5	82,6	104,6
Piskent	53,0	183,6	11,5	11,5	53,0	186,0
O`rtachirchiq	1264,9	83,5	83,2	83,2	25,0	102,0
Chinoz	399,0	87,9	86,4	86,4	44,4	101,7
Yangiyo`l	142,9	105,7	36,5	36,5	142,8	105,8
Toshkent	527,7	101,3	76,9	76,9	509,1	102,4

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Olmaliq shaharda (69,9 %) tumanida qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-86-59**